

**AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI XUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/01.04.2023.Tib.160.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI**

**AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

TUYCHIEV NURIDDIN NAZAROVICH

**ASORATLANGAN SIL SPONDILITINI OSHQOZON-ICHAK TIZIMI
FUNKTSIONAL BUZILISHIDA KOMPLEKS DAVOLASH**

14.00.26 – Ftiziatriya

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO'K: 616.0025:616-08:616.711-002:616.7.616-3

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии медицинских наук (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of phylosophy of medicine (PhD)

Tuychiev Nuriddin Nazarovich

Asoratlangan sil spondilitini oshqozon-ichak
tizimi funktsional buzilishida kompleks davolash 3

Туйчиев Нуриддин Назарович

Комплексное лечение осложнённых форм туберкулёзного
спондилита с функциональными нарушениями
желудочно-кишечного тракта..... 21

Tuychiev Nuriddin Nazarovich

Complex treatment of complicated forms of tuberculosis
with functional disorders of the gastrointestinal tract..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 46

**AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI XUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/01.04.2023.Tib.160.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI**

**AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

TUYCHIEV NURIDDIN NAZAROVICH

**ASORATLANGAN SIL SPONDILITINI OSHQOZON-ICHAK TIZIMI
FUNKTSIONAL BUZILISHIDA KOMPLEKS DAVOLASH**

14.00.26 – Ftiziatriya

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida ro'yxatga olingan raqami B2024.2.PhD/Tib4678.

Dissertatsiya Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengashning internet sahifasida (www.tipme.uz) va axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Ilmiy rahbar:

Nazirov Primqul Xujamovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Toshpulatova Fatima Qudratovna
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Karimov Mirvasit Mirvasiqovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

**Abu Ali Ibn Sino nomidagi
Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti**

Dissertatsiya himoyasi "_____" 2024 yil _____ soat DSc.04/01.04.2023.Tib.160.01 sonli ilmiy kengash yig'ilishida Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100086, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Majlisiy ko'chasi, 1-bino), Tel/faks: +998 71-278-04-70, +998 71 278-15-28; e-mail: tbcenter.uz@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kutubxonasida tanishish mumkin (ro'yxatdan o'tgan). Manzil: 100086, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Majlisiy ko'chasi, 1-uy), tel / faks: +998 71-278-04-70.

Dissertatsiya avtoreferati yuborildi _____ "_____" _____ 2024 yil.
(_____ 2024 yil)

N.N. Parpieva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori

E.A. Abdug'aniyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengashining ilmiy
kotibi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

A.S. Sodiqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, tibbiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasining annotatsiyasi (PhD))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Dunyoda o'pkadan tashqari a'zolar sili tizimida sil spondilitining birlamchi aniqlangan asoratli shakllari yetakchi bo'lib; silning umumiy, ortopedik va nevrologik asoratlari ichki parenximatoz a'zolari, ya'ni oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlari bilan kechishi aniqlanmoqda. Asoratlangan sil spondilitida oshqozon-ichak tizimi funktsional kasalliklari kam o'rganilgan bo'lib, «...kasallik keng tarqalgan, ammo uning patogenezi, klinik kechishi va kompleks davosi murakkabligicha saqlanib qolmoqda...»¹. Shu sababli, asoratlangan sil spondilitida oshqozon-ichak tizimi funktsional kasalliklarini erta tashxislash xususiyatlarini o'rganish, ushbu patologik holat natijasida yuzaga keladigan asoratlarni oldini olish va kamaytirish uchun tibbiy yordamning turli bosqichlarida bemorlarni olib borish va kompleks davolash usullarini ishlab chiqish, tibbiyotda hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar qatoriga kiradi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, jahonda sil spondilitining asoratli shakllarini kompleks davolashning asosiy bo'g'imi jarrohlik usuli bo'lib, hozirgi davrda 76,0% jarrohlik amaliyotlari orqa miya funktsiyasining turli darajadagi buzilishi yuzaga kelgandan so'ng bajarilmoqda. Shu toifa bemorlarda kasallikning oshqozon-ichak tizimida funktsional buzilishlar bilan kechishi zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. Sil spondilitining asoratli shaklida oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlarini tashxisoti, kompleks davolash va profilaktikasi muammoligicha qolmoqda, shu bilan birga sil spondilitining asoratli, klinik og'ir bosqichlarda kechishi, kasallik asoratlarning barvaqt yuzaga kelishi, sil jarayonining ko'p o'choqli shakllarda paydo bo'lishida ichki parenximatoz a'zolar funktsiyasining buzilishi muhim ahamiyatga ega. Asoratlangan sil spondilitini jarrohlik usulida davolashda umurtqa segmentining stabilligini tiklash, barvaqt reabilitatsiya chora-tadbirlarini o'tkazish, bemorlarni faollashtirish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda Sog'liqni saqlash tizimida yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarga qarshi profilaktika choralariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, «...mamlakatimizda tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish»² kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28 yanvardagi -PF-60sonli «Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida»gi

¹ Gharibans AA, Hayes TCL, Carson DA, et al. A novel scalable electrode array and system for non-invasively assessing gastric function using flexible electronics. *Neurogastroenterology & Motility*. 2023; 35: e14418. doi: 10.1111/nmo.14418

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabr -PF-5590 son «Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni

Farmoni, 2021 yil 28 iyuldagi -PQ-5199 sonli «Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2023 yil 20 yanvardagi -PQ-12sonli «2023-2026 yillarda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»³gi qarorlari, hamda, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Tadqiqot ishi Respublikamizda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. So'ngi yillarda asoratlangan sil spondilitining tashxisoti, xirurgik davosi va profilaktikasi bo'yicha ilmiy ishlar bajarilgan bo'lib, ular sil spondilitining asoratli shakllarida oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlarini tashxisoti va kompleks davolash usullari, silni latent shaklini aniqlash, zamonaviy sifatli tibbiy yordam ko'rsatish, yuqori texnologiyali zamonaviy jarrohlik davolash usullari qo'llash va takomillashtirish, silning doriga turg'un shakllarida jarrohlik usullarini qo'llash (Khan N. et al.2016., Jullien S. et al. 2016., Kabore C. et al. 2018), oshqozon-ichak tizimi funktsional kasalliklari sil bemorlarida o'rganilgan bo'lib (Baranskaya Ye.K. 2020,Xolodov A.A.2022.), ichak mikrobal muhitining immun gomeostazini tartibga solishdagi o'rni, bu muhit o'zgarishi esa yuqumli kasalliklar, shu jumladan sil kasalligi rivojlanish xavfi yuqoriligi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, oshqozon-ichak tizimi kasalligida yetakchi kompleks davolash usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish bu muammoni o'rganish zaruriyatini tasdiqlaydi (Yunusbaeva M.M. va hammualif., 2023).

Ko'p sonli ilmiy ishlarda oshqozon-ichak tizimi funktsional o'zgarishlari patogenezi, kelib chiqish sabablari, klinik kechishi, davolash va profilaktika usullari va jarrohlik muolajasidan so'ng rivojlanish mexanizmlari o'rganildi (Jonathan G.2022., Yunusbaeva M.M. 2023., Dubovik D.S.2021). Gastroezofageal va duodeno-gastral reflyuks sil bilan kasallangan bemorlarda 27% - 68% larda uchrashi ko'rsatib o'tilgan. Sil bemorlarida aniq va bir xil yondashuvga ega bo'lgan oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlari barvaqt invaziv tashxisoti yoritilmagan bo'lib, ilmiy izlanishlar oshqozon-ichak tizimi antroduodenal sohasining funktsional buzilishlarini prognozlash va kasallikning patofiziologiyasi ustida olib borilgan (Gerald Holtmanna 2018., Kamaltdinov M. R. 2016).

Respublikamizda sil spondiliti kasalligining tashxisotini va davosini tizimli tashkillashtirish, kasallikning oldini olish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (O'razbaev A.A.2010., Faxrtidnova A.R. 2012., Musaev R.S. 2013., Maxmudova Z.P. 2019., Usmanov I.X. 2020). Ilmiy adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili bugungi kunda sil bemorlarida oshqozon-ichak tizimi motor-harakat funksiyasining standart tekshiruvlar algoritmini ishlab chiqishni, tekshiruv

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi -PQ-12sonli «2023-2026 yillarda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»

usullari texnologiyasi mukammal emasligi, tadqiqotlarni davom ettirishni talab qiladi. Shu sababli, sil spondilitining asoratlangan shaklida, ovqat hazm qilish tizimining funktsional buzilishlarini barvaqt, erta tashxislash va asosiy kasallikni kompleks davolash samaradorligini oshirish ftizioortopediyaning hozirga qadar o'rganilmagan dolzarb muammosi hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan aloqasi. Dissertatsiya ishlari Akademik Sh.Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi asoratlangan sil spondilitini kompleks antibakterial, patogenetik va jarrohlik davolash jarayonida oshqozon-ichak tizimidagi funktsional buzilishlarni aniqlash, davolash usullarini ishlab chiqish va samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

asoratlangan sil spondiliti bemorlarining oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlarida asosiy kasallikning klinik og'ir kechishi tahlilini o'tkazish;

asoratlangan sil spondiliti bilan og'rigan bemorlarni kompleks davolash jarayonida oshqozon-ichak tizimida funktsional buzilishlarni aniqlash;

jarrohlik amaliyotidan avvalgi va keyingi davrda asoratlangan sil spondiliti bemorlarida oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishini aniqlash va davolash sxemasini ishlab chiqish;

asoratlangan sil spondilitini jarrohlik davolash usullari samaradorligini oshirish, asoratlarni kamaytirish uchun xirurgik uskunalar yaratish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida 100 nafar asoratlangan sil spondiliti bilan og'rigan bemorlar olindi. Klinik laborator tekshiruvlar Akademik Sh.Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazida bajarildi. Tekshiruvda bo'lgan 100 nafar asoratlangan sil spondiliti bilan kasallangan bemorlar jarrohlik davolash turiga qarab 2 ta guruhga ajratib o'rganildi. 1 - guruhni 60 nafar (60,0%) asoratlangan sil spondiliti va oshqozon-ichak tizimida funktsional buzilishlari aniqlangan bemorlar; 2 - guruhni 40 nafar (40,0%) asoratlangan sil spondiliti aniqlangan va oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlari yo'q bemorlar tashkil qildi.

Tadqiqot predmeti sifatida asoratlangan sil spondiliti bemorlarning vena qoni, qon zardobi biokimyoviy tahlili, likvori, yiring va kazeoz ajralmalar mikrobiologik tahlili natijalari olingan.

Tadqiqot usullari. Umumklinik, instrumental (oshqozon-ichak tizimi a'zolari exografiyasi, ezofagogastroduodenoskopiya tekshiruvi), biokimyoviy, bakteriologik, rentgenologik va tomografik, xamda olingan natijalarni statistik usullardan foydalanildi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor asoratlangan sil spondilitida ichki a'zolarining innervasiyasini ta'minlovchi orqa miya o'tkazuvchanligi tizimidagi chuqur buzilishlar oshqozon-ichak tizimining funktsional buzilishlarining belgilersiz kechishini aniqlab berishi isbotlangan;

ilk bor asoratlangan sil spondiliti bilan og'riqan bemorlarda OIT funksional buzilishini orqa miya zararlanishi tufayli rivojlanish sabablari va asosiy kasallik kechishiga og'irlashtiruvchi ta'sirlari isbotlangan;

ilk bor kompleks antibakterial davolash jarayonida jarrohlik amaliyotidan avvalgi va keyingi davrda asoratlangan sil spondiliti bemorlarida oshqozon-ichak tizimi funksional buzilishini aniqlash va davolash algoritmi ishlab chiqilgan;

ilk bor orqa miyaning funksional buzilishlarini kamaytirishga qaratilgan chuqur orqa miya deformatsiyasini korrektsiyalovchi qurilma "Umurtqa deformatsiyalarini xirurgik davolash uchun qurilma" (FAP 01601) va ushbu qurilmani o'rnatish uskunasi "Qisqich" (UZ FAP 01467 raqami) yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

asoratlangan sil spondiliti bemorlarida oshqozon-ichak tizimidagi funksional buzilishlar asosiy kasallikni klinik og'ir kechishiga ta'siri isbotlangan;

asoratlangan sil spondilitini davolash jarayonida maqsadli tekshiruvlar yordamida oshqozon-ichak tizimida shikoyatlari bo'lmagan bemorlarda chuqur funksional o'zgarishlar borligi aniqlandi;

asoratlangan sil spondilitida oshqozon-ichak tizimi funksional o'zgarishlarining og'irlik darajasi asosiy kasallikni umurtqalarda joylashgan o'rniga, orqa miya ezilishi, ya'ni nevrologik buzilishlar bilan bog'liqligi isbotlangan;

asoratlangan sil spondilitida qo'llanilgan "7 belgilar 7 kunda" anketasi oshqozon-ichak tizimi motor-harakat funktsiyasining buzilishi belgilarini erta aniqlash va uning og'irlik darajasini belgilashda klinik ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan;

asoratlangan sil spondilitida oshqozon-ichak tizimi funksional buzilishlarini barvaqt davolashda ishlab chiqilgan diagnostik algoritm muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, bemorlar sonining yetarli ekanligi, statistik tekshirish usullari yordamida ishlov berilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy ma'lumotlar bilan taqqoslanganligi, chiqarilgan xulosa, hamda, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganini bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asoratlangan sil spondiliti bemorlarida oshqozon-ichak tizimi motor-harakat funktsiyasi buzilishlari muddati, chuqur kechishi va rivojlanish sabablari, orqa miya funktsiyasi buzilishining og'irlik darajasi va sil jarayonining umurtqa segmentida joylashgan o'rniga bog'liqligini isbotlanishidan olingan ma'lumotlar; asoratlangan sil spondilitida oshqozon-ichak tizimida shikoyatlari bo'lmagan bemorlar maqsadli tekshirilganda, ovqat hazm qilish jarayonlarining u yoki bu darajada buzilganligi va asosiy kasallikni og'ir kechishiga sababchi omillar ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, asoratlangan sil spondiliti bilan kasallangan bemorlarda jarrohlikdan avvalgi va keyingi davrda oshqozon-

ichak tizimining funktsional buzilishlarini erta aniqlash tashxisoti algoritmi, aniqlangan kasallikni prokinetiklar guruhi dorilari bilan davolash, jarrohlik muolajada kombinirlangan implantatdan foydalanish chora tadbirlarini amaliyotga tadbiiq qilinishi asosiy kasallikni og'ir asoratlarni, shuningdek, letal oqibatlarini kamayishini ta'minlagan. Ushbu kasallikni davolashda, profilaktikasida samarali va qulay usullardan foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini joriy etish. Akademik Sh.Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazining 18.10.2024yil №01-03/818 xati (ilmiy yangiliklarni boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga tadbiiq etish bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligiga) asosida 13.11.2024yil №08/67 ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga tadbiiq bo'yicha xulosa olindi.

birinchi ilmiy yangilik: asoratlangan sil spondilitini antibakterial dorilar bilan davolash jarayonida, maqsadli tekshiruvlar yordamida oshqozon-ichak tizimida shikoyatlari bo'lmagan bemorlarda chuqur funktsional o'zgarishlarni kompleks davosining samaradorligi oshirish usulini Qoraqalpog'iston Respublikasi ftiziatriya va pulmonologiya markazining 2023 yil 10 yanvardagi №34-son buyrug'i asosida klinikaning o'pkadan tashqari a'zolar sili bo'limiga, Qashqadaryo viloyati ftiziatriya va pulmonologiya markazining 2023 yil 15 yanvardagi №45-son buyrug'i asosida klinik amaliyotiga joriy qilingan. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: Taklif etilgan usul asoratlangan sil spondiliti bilan og'iragan bemorlarda oshqozon-ichak tizimida mavjud bo'lgan funktsional buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ir asoratlarni oldini olish imkonini bergan. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: asoratlangan sil spondiliti bemorlarini reanimatsiya va bo'limlarda davolanishlari 10 kunga qisqarib, bir nafar bemor uchun o'rtacha 8000 000 so'm iqtisod qilindi. *Xulosa:* asoratlangan sil spondiliti bemorlarda oshqozon-ichak tizimidagi funktsional o'zgarishlari o'z vaqtida tashxislab kerakli muolajalarni 1 nafar bemorga foydalanish amaliyotining joriy qilinishi byudjet mablag'larini 8000 000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

ikkinchi ilmiy yangilik: asoratlangan sil spondilitini davolash jarayonida maqsadli tekshiruvlar yordamida oshqozon-ichak tizimida shikoyatlari bo'lmagan bemorlarda chuqur funktsional o'zgarishlar borligini aniqlash usulini Qoraqalpog'iston Respublikasi ftiziatriya va pulmonologiya markazining 2023 yil 10 yanvardagi №34-son buyrug'i asosida klinikaning o'pkadan tashqari a'zolar sili bo'limiga, Qashqadaryo viloyati ftiziatriya va pulmonologiya markazining 2023 yil 15 yanvardagi №45-son buyrug'i asosida klinik amaliyotiga joriy qilingan. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: taklif etilgan usul oshqozon-ichak tizimida shikoyatlari bo'lmagan asoratlangan sil spondiliti bemorlarida jarroxlik amaliyotiga qadar maqsadli tekshiruvlar o'tkazilib, oshqozon-ichak tizimida noma'lum bo'lgan funktsional o'zgarishlarni tashxislash, davolash imkonini bergan. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: asoratlangan sil spondilitida, oshqozon-ichak tizimida noma'lum bo'lgan funktsional o'zgarishlarni aniqlab, davolashda 1 nafar bemor o'rtacha 8000 000 so'm iqtisod qilingan. *Xulosa:* oshqozon-ichak tizimida shikoyati bo'lmagan,

asoratlangan bir nafar sil spondiliti bemorlarga foydalanish amaliyotining joriy qilinishi uchun byudjet mablag'larini 8000 000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

uchinchi ilmiy yangilik: ilk bor kompleks antibakterial davolash jarayonida jarrohlik amaliyotidan avvalgi va keyingi davrda asoratlangan sil spondiliti bemorlarida oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishini aniqlash va davolash algoritmi Qoraqalpog'iston Respublikasi ftiziatriya va pulmonologiya markazining 2023 yil 10 yanvardagi №34-son buyrug'i asosida klinikaning o'pkadan tashqari a'zolar sili bo'limiga, Qashqadaryo viloyati ftiziatriya va pulmonologiya markazining 2023 yil 15 yanvardagi №45-son buyrug'i asosida klinik amaliyotiga joriy qilingan. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: ishlab chiqilgan va taklif etilgan algoritm asoratlangan sil spondiliti bemorlarida maqsadli tekshiruvlar yordamida oshqozon-ichak tizimida mavjud yoki noma'lum bo'lgan funktsional o'zgarishlarni aniqlash, kasallikni turlari va darajasiga qarab kompleks davolashlarni takomillashtirish imkonini yaratgan. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: asoratlangan sil spondilitida antibakterial dorilar va jarroxlik amaliyoti ko'llanilishi davrida, oshqozon-ichak tizimidagi funktsional o'zgarishlarni va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni oldini olishda 1 nafar bemor uchun 8000 000 so'm iqtisod qilingan. *Xulosa:* asoratlangan sil spondilitida oshqozon-ichak tizimidagi funktsional o'zgarishlarni tashxislash va davolashda bir nafar bemorga foydalanish amaliyotining joriy qilinishi uchun byudjet mablag'larini 8000 000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

to'rtinchi ilmiy yangilik: ilk bor orqa miyaning funktsional buzilishlarini kamaytirishga qaratilgan chuqur orqa miya deformatsiyasini korrektsiyalovchi qurilma "Umurtqa deformatsiyalarini xirurgik davolash uchun qurilma" (FAP 01601) va ushbu qurilmani o'rnatish uskunasi "Qisqich" (UZ FAP 01467 raqami) ishlanmalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi ftiziatriya va pulmonologiya markazining 2023 yil 10 yanvardagi №34-son buyrug'i asosida klinikaning o'pkadan tashqari a'zolar sili bo'limiga, Qashqadaryo viloyati ftiziatriya va pulmonologiya markazining 2023 yil 15 yanvardagi №45-son buyrug'i asosida klinik amaliyotiga joriy qilingan. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: olingan ma'lumotlarning amaliy ahamiyati ulardan asoratlangan sil spondilitida oshqozon-ichak tizimidagi funktsional o'zgarishlarni xisobga olgan holda, asosiy kasallikni davolash samaradorligini oshirish, jarroxlikdan keyingi asoratlarni oldini olishdan iborat. Jarroxlik amaliyotida umurtqalar faoliyatini tiklash uchun "titan piramesh" implantini qo'llash, yaratilgan jarroxlik asboblarini qo'llash, kasallikni to'liq tuzalish imkonini bergan. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: umurtqalar faoliyatini tiklash uchun qo'llanilgan "titan keydj"lar bemorlarda yotoq rejimini 30 kunga qisqartiradi. "Umurtqa deformatsiyasini xirurgik davolash uchun qurilma" va "Qisqich"ni qo'llash jarroxlik amaliyotini 60-70 minutga, qon ketishini 35% ga qisqartiradi. Natijada 1 nafar bemor uchun o'rtacha 15000 000 so'm iqtisod qilish imkonini bergan. *Xulosa:* asoratlangan sil spondiliti bemorlarida, oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlarini xisobga

olgan xolda, jarroxlik amaliyoti samaradorligini oshirish uchun yaratilgan jarroxlik asboblari kasallangan bir nafar bemorga foydalanish amaliyotining joriy qilinishi uchun byudjet mablag'larini 15000 000 so'mga iqtisod qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarini sinab ko'rish. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta Respublika ilmiy amaliy anjumanlarida va Rossiya Ftiziatrlar Milliy Assotsiatsiyasi IV-kongressida (Sankt-Peterburg) ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining nashr etilishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 39 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning nazariy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarini Sog'liqni saklash amaliyotiga tadbiq etish, ilmiy ishning aprobatsiyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Sil kasalligining tarqalishi, klinik kechishi, oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlarining tashxisoti (adabiyotlar sharxi)**» deb nomlangan birinchi bobida, sil kasalligining tarqalganligi, klinik kechishi, ayniqsa dorilarga chidamli turg'un sil kasalliklarini davolashdagi muammolar yoritilgan. Sil spondilitining asoratlangan shakli oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishida kompleks davolash masalasiga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar ro'yxati va uni chuqur tahlil qilish, sil spondiliti kasalligining klinik kechishida ichki a'zolar, shu jumladan oshqozon-ichak tizimi motor-harakat funksiyasi kasalliklari, yechimini talab qiladigan dolzarb masalalarning hozirgi holati o'rganildi. O'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish natijasida tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilandi.

Dissertatsiyaning «**Asoratlangan sil spondilitini oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishida kompleks davolash bo'yicha tadqiqot materiallari va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida klinik materialning umumiy tavsifi va amaliy tadqiqot usullari keltirilgan. Tadqiqotning asosiy materialini 100 nafar asoratlangan sil spondiliti bilan og'rikan bemorlar, shundan 60 nafar (60,0%) asoratlangan sil spondiliti bilan og'rikan va oshqozon-ichak tizimida funktsional buzilishlari aniqlangan bemorlar 1-guruhni; 40 (40,0%) nafar asoratlangan sil

spondiliti bilan og'riq va oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlari yo'q bemorlar 2-guruhni tashkil qildi.

Tekshiruvdagi bemorlarda asoratlangan sil spondilitida oshqozon-ichak tizimi motor-harakat funktsiyasi buzilishlari orqa miya funktsiyasi buzilishlarida, ya'ni jarrohdan avvalgi va keyingi davrida, sil jarayonining sil bilan zararlangan umurtqa segmentida joylashgan o'rni, oshqozon-ichak tizimining motor-harakat funktsiyasi buzilish variantlarining xavf omillari olindi. Mehnat qobiliyati yoshidagilar 21 yoshdan 60 yoshgacha 64,1% (n=59), ko'pchilikni tashkil qildi. O'rtacha yosh nisbati $37,2 \pm 1,2$ yoshni tashkil qildi. Tekshirilgan bemorlardan erkaklar; 1-guruhda 32 (53,3%) nafarni; 2-guruhda 22 (55,0%) nafarni; ayollar; 1-guruhda 28 (52,1%) nafarni; 2-guruhda 18 (47,8%) nafarni tashkil qildi.

Antibakterial va jarrohlik davolash samaradorligini oshirish maqsadida 65 nafar ($86,1 \pm 4,1$) orqa miya ezilishi oqibatida yuzaga kelgan nevrologik asoratlangan bemorlarda 1-1,5 oylik antibakterial davolash davomida to'liq, to'liq-qayta tiklash turdagi jarrohlik amaliyoti bajarildi. Bemorlarda nevrologik holat (Mushkin A.Yu. va hammualif., 1998) o'zgartirish kiritilgan Frenkel (Frankel H.L. et al., 1969) shkalasida 5 ta darajada baholandi. A-harakat va sezgi funktsiyasining yo'qligi, V-harakat funktsiyasi zararlangan sohadan pastda yo'qligi, biroq sezgi elementlari saqlanganligi, S-harakat funktsiyasi zararlangan sohadan pastda saqlanganligi, biroq mushak kuchi 3 balldan pastligi, D-harakat funktsiyasi zararlangan sohadan pastda saqlanganligi, bunda mushak kuchi 3 ball va undan ortiq, E-harakat funktsiyasi buzilmagan yoki qisman buzilgan, og'riq va ish faoliyatga ta'siri yo'q. Ikkala guruh bemorlarida sil bilan zararlangan umurtqa tanasi rezektsiyasi va orqa miya dekompressiyasi va umurtqa pog'onasi ortostatik funktsiyasi stabiligini ta'minlash maqsadida kombinirlangan implantat, autosuyak va setkali titan keydj qo'llanildi (Rasm 1a,b,c).



Rasm 1a



Rasm 1b



Rasm 1c

Umurtqa pog'onasi va OIT motor-harakat funktsiyasini tekshiruvlarida; klinik belgilarini va motor-harakat funktsiyasi buzilishi darajasini baholashda "7 belgilar 7 kunda" savolnomasi, rentgenologik, multispiral kompyuter tomografiyasi, oshqozon-ichak tizimi bariy bo'tqasida rentgenoskopiyasi, ezofagogastroduodenoskopiya tekshiruvi o'tkazildi.

Bakteriologik tekshiruvda sil mikobakteriyasini aniqlash maqsadida: asoratlangan sil spondiliti bemorlarini tekshiruv rejasiga asosan ikkala guruhda (1-guruh 60 nafar; 2-guruh 40 nafar) balg'am mikroskopiya usulida 2 martadan

tekshirildi. Operatsiya old davrida oqma abstsess sohasidan olingan punktat 1-guruhda 9 nafar (15,0%) va 2 guruhda 6 nafar (15,0%) bemorlarda, 1- guruhda 3 nafar bemorda esa oqma yaradan kazeoz, yiring bakterioskopik Silb-Nilsen usulda tekshirildi, 1 va 2-guruh bemorlarida, jami 100 nafarida jarrohlik vaqtida olingan yiring va kazeoz massalari molekulyar-genetik usulida Gene Expert apparatida tekshirildi, ya'ni GeneXpert tashxis tizimli va Xpert MTB/RIF tahlil mustaqil katridjli platformali DNK testini bajaradi va bir vaqtning o'zida sil qo'zg'atuvchisining rifampitsinga turg'unligiga sababchi bo'ladigan mutatsiyasini aniqlaydi, toza kulturani Lowenstein-Jensen qattiq muhitidan ajratib olinib, MGIT-960 suyuq muhitda silga qarshi dorilar sezgirligi ikkala guruhdagi: 1-guruh 60 nafar; 2-guruh 40 nafar bemorlarida tekshirildi.

Dissertatsiyaning «**Sil spondilitining klinik kechishi, uning oshqozon-ichak tizimidagi asoratlari**» deb nomlangan uchinchi bobida sil spondilitining klinik-laborator va rentgenotomografik tekshiruvlari xulosalari va asoratlangan sil spondilitining oshqozon-ichak tizimidagi asoratlari keltirilgan. Tekshiruvdagi ikkala guruh bemorlarining 66,0%, shundan 1- guruhda 32,0%, 2- guruhda 34,0% da sil spondiliti faol bosqichda, 34,0% holatda, shundan 1- guruhda 16,9%, 2-guruhda esa 17,0% faol torpid kechuvchi davrida aniqlandi. Ikkala guruh bemorlarining 31 nafarida ($58,1 \pm 2,1$) kasallik o'tkir boshlanishi qayd etilgan.

Klinik jihatdan kasallik o'rganilganda bemorlarda sildan zaharlanish, teri qoplamalari rangparligi, tana vaznini kamayishi, febril tana harorati ko'rsatkichi, ko'p terlash, ishtaha yo'qligi va ozib ketish kuzatilgan.

Rentgenologik tekshiruvda 1- guruhning 3 nafar (5,0%) bemorlarida o'ng taraf lama sil eksudativ plevriti aniqlandi. Shu toifa bemorlarda klinik jihatdan sil spondiliti kasalligi faol bosqichda aniqlanib, kasallikning o'tkir boshlanishi, tana harorati $37,0-38,0^{\circ}$ S ko'tarilishi, umumiy holsizlik, ishtaha sustligi va sezilarli tana og'irligi kamayishi bilan boshlangani qayd etildi.

Asoratlangan sil spondiliti bemorlarining oshqozon-ichak tizimida motor-harakat funksiyasi buzilgan bemorlar 1-guruhda 60 nafarni ($93,3 \pm 1,0$), oshqozon-ichak tizimi motor-harakat funksiyasi buzilishlari yo'q 2-guruhda esa motor-xarakat funksiyasi buzilishi 14 nafarni ($35,0 \pm 1,3\%$) tashkil qildi. Anamnezida oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishlari, ya'ni oshqozon yuqori bo'lagi xarakatlantiruvchi peristaltikasi buzilishi oqibatida ovqatdan so'ng epigastriya sohasida og'irlik va to'qlik, epigastral og'riq, barvaqt to'qlik, hiqichoq hissini qayd etildi. Oshqozon tonusi oshishi belgisi epigastral og'riq, ko'ngil aynashi, qorinda spazmatik og'riq bilan kuzatildi. Anamnezida 1-guruhni 3 ($5,0 \pm 0,7$) nafar bemorlari ichburug' kasalligi, 4 ($6,6 \pm 0,9$) nafari nospetsifik kolit tashxisi bilan davolangani qayd qilindi. Shu guruh bemorlarida sildan zaharlanish belgilari, teri qoplamalari rangparligi, tana og'irligi sezilarli kamayishi, tana xarorati subfebril ko'rsatkichi, ishtaha sustligi, oshqozon-ichak tizimi a'zolari motor-harakat funksiyasi buzilishi klinik belgilari kuzatildi. Ma'lumki, bu klinik buzilishlar asosida oshqozonda noorganik moddalar xloridlar, bikarbonatlar, sulbfatlar, fosfatlar, natriy, kaliy, kalbtsiy, magniy miqdor tarkibi o'zgarishlari yuzaga kelib, bu o'z navbatida periferik qon tarkibida o'zgarishlar keltirib chiqaradi (1-jadval).

Bemorlarda periferik qon ko'rsatkichlari

Qon tarkibi	Me'yor	1-guruh(n=60)	2-guruh(n=40)	P
Gemoglobin, g/l	120,0-160,0	10,2±0,2	11,7±0,2	>0,5
Eritrotsitlar, mln.	3,9-5,0	3,1±0,4	3,8±0,9	<0,05
Leykotsitlar, ming	4,0-9,0	10,0±0,34	7,58±1,1	<0,01
Segment yadroli, %	47,0-72,0	67,0±0,8	62,4±0,9	>0,5
Tayoqcha yadroli, %	1,0-6,0	3,9±0,3	3,8±0,5	>0,5
Limfotsitlar, %	10-37	24,0±0,9	26,7±1,0	<0,05
Monotsitlar, %	3-1	3,7±0,3	4,3±0,4	<0,05
Eozinofillar, %	0,5-5	1,4±0,1	2,7±0,3	<0,01
ECHT mm/s	2-15	34,0±2,2	20,0±2,3	<0,01

Izox: * -ko'rsatkichlar farqi statistik jixatdan axamiyatli ($p<0,05$)

Jadvalda keltirilgan ikkala guruh bemorlari periferik qon tahlili taqqoslanganda periferik qon tahlili ko'rsatkichlarida yuqori farq qayd etilmadi. 1-guruhda alaninaminotransferaza va aspartataminotransferaza ko'rsatkichlari: $0,97\pm 0,02$ va $0,69\pm 0,03$ mkmol/l, 2- guruhda: $0,58\pm 0,03$ va $0,38\pm 0,02$ mkmol/l., ni tashkil qildi ($p<0,05$).

Asoratlangan sil spondiliti bemorlarida rentgenologik va rentgenotomografik tekshiruvlar, shu jumladan orqa miya kanaliga kontrastli dorilarini (Omnipak-300) endolyumbal (subaraxinoidal, epidural) yuborilib tekshirish usullari qo'llanildi. 1-guruh bemorlarining 4(6,6%) nafarida, ko'krak va bel umurtqalarining asoratlangan sil spondilitining orqa miya funksiyasining chuqur buzilishi bilan asoratlangan shaklida endolyumbal kontrastli rentgenografiya tekshiruvi o'tkazildi. Tekshiruvlar asnosida asoratlangan sil spondiliti kasalligining qaysi bosqichda kechishi, spetsifik yallig'lanish o'chog'iga xos yemirilish jarayonlari aniqlandi.

Qayd etish lozimki, qat'iy ortopedik yotoq rejimida davolanayotgan asoratlangan sil spondiliti bemorlarida oshqozon-ichak tizimi motor-harakat funksiyasining buzilish sabablari ko'p etiologiyali hisoblanib, kompleks tekshiruvlar har bir holatda alohida yondashuvni talab qiladi. Umurtqa tanasida yemirilish jarayoni tez kechishi va tarqalishi, suyak to'qimasida nekroz va sekvestrlarni yuzaga keltiradi. Umurtqa tanalari sil yallig'lanish jarayoni hisobiga yemirilishi oqibatida, umurtqa tanalari orasidagi fibroz to'qimali disk tarkibi o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va natijada umurtqa pog'onasida burchakli bukrilikni keltirib chikaradi.

1 guruh bemorlarining 16 ($26,6\pm 1,2$) nafarida kifoz burchagi 120° dan kam, 28 ($46,6\pm 3,8$) nafarida 120° yuqoriligi aniqlandi. 2 -guruh bemorlarida kifoz burchagi 120° kam holatda qayd etildi ($r<0,01$) (2-jadval).

Shuni qayd etish lozimki, sil bilan zararlangan umurtqa segmenti kifotik bukriligida harakat me'yori sezilarli ravishda nerv mushak tutami hisobiga chegaralanadi. Yemirilish, yallig'lanish jarayoni va tarqalish bosqichi tashxisi noturg'un hisoblandi. Jarrohlik muolajasi o'tkazish vaqtida ikkala guruh bemorlarida sil spondiliti $80,0\pm 1,9\%$ bemorlarda bu asorat tasdiqlandi. Ikkala guruh bemorlarida umurtqa pog'onasidagi yallig'lanish jarayoni tarqoqligi, umurtqa old va yon oqma abstsesslari, turli darajadagi nevrologik asoratlari, ya'ni paraparez,

piramid turi yetishmovchiligi 1 -guruhda $15,0 \pm 1,7\%$ holatda va 2 -guruhda $15,0 \pm 1,1\%$ qayd etildi. Orqa miya chuqur darajada buzilishlari 1-guruh bemorlarida 2-guruhga nisbatan ko'p qayd etildi. Orqa miya buzilishlari og'irlik darajasi kichik chanoq a'zolari faoliyati buzilishlari majudligini qayd etadi. Kichik chanoq a'zolari faoliyati buzilishi 1-guruhda 44 ($73,3 \pm 3,8$); 2-guruhda 21 ($52,5 \pm 3,0$) holatda qayd etildi. Qisman siydik tutilishi $37,0 \pm 2,6\%$ va $21,0 \pm 0,9\%$, tutilish bilan qaytalanuvchi buzilishlari $18,0 \pm 1,2\%$ va $9,7 \pm 2,1\%$ ni tashkil qildi.

2-jadval

Sil spondiliti asoratlarning soni va xarakteri, abs. (%)

Asoratlar	Bemorlar soni		P
	1- guruh (n=60)	2- guruh (n=40)	
Nostabillik	48 ($80,0 \pm 3,2$)	23 ($57,5 \pm 2,6$)	<0,01
Nevrologik buzilish	44 ($73,3 \pm 3,8$)	21 ($52,5 \pm 3,0$)	<0,001
Og'riq			
-tinch xolatda	41 ($68,3 \pm 2,8$)	13 ($32,5 \pm 1,8$)	<0,01
-harakat vaqtida	39 ($65,0 \pm 2,6$)	22 ($55,0 \pm 4,0$)	<0,05
Bukrilik	40 ($66,6 \pm 3,2$)	19 ($47,5 \pm 2,8$)	<0,05
-120° burchakdan kam	16 ($26,6 \pm 1,2$)	8 ($20,0 \pm 1,0$)	>0,5
-120° burchakdan ortiq	28 ($46,6 \pm 3,8$)	17 ($42,5 \pm 1,8$)	<0,05
Abstsesslar			
-Ko'krak kafasi ichki paravertebral	44 ($73,3 \pm 3,2$)	20 ($50,0 \pm 2,8$)	<0,05
- psoas	13 ($21,6 \pm 0,7$)	15 ($37,5 \pm 2,0$)	<0,05
-presakral	10 ($16,6 \pm 2,6$)	8 ($20,0 \pm 0,8$)	>0,5
Oqma yara	5 ($8,3 \pm 1,2$)	3 ($7,5 \pm 0,1$)	>0,5

Izoh: *-bir bemorda bir nechta asoratlar kuzatilganligi uchun foiz ko'rsatkichlar baland chiqqan.


Qayd etish lozimki, kichik chanoq a'zolari faoliyati buzilishlari asoratlangan sil spondiliti kasalligiga xos bo'lib, orqa miya funktsiyasi qisman buzilishlari bilan tushuntiriladi. Bemorlar yoshi tahlil qilinganida sil spondilitining tez rivojlanuvchi va asoratli shakllari yoshi katta bo'lgan toifaga nisbatan 21-50 yoshda ko'p qayd kilindi. Shuni qayd etish lozimki, sil spondilitining asoratli shakllari ko'p qayd etilishida umumiy amaliyot shifokorlarining sil spondiliti to'g'risida yetarlicha yondoshuv sustligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, oshqozon-ichak tizimida mavjud bo'lgan funktsional buzilishlar, sil spondiliti klinik kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, asoratlarni chuqurlashuviga sabab bo'lishini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning «**Sil spondilitining oshqozon-ichak tizimidagi funktsional buzilishida antibakterial davolashning natijalari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida antibakterial davolash samaradorligi, asoratlangan sil spondilitini oshqozon-ichak tizimi funktsional buzilishida kompleks davolashning samaradorligi o'rganildi. Silga qarshi dorilari tana vazni hisobga olinib HREZ (Izoniazide 75 mg+ Rifampisine 150 mg + Pirazinamide 400mg + Chlorhydrate d'Etambutol) № 56 dan № 84 gacha berildi. Bemorlarga 5 chi parxez stoli buyurildi. Bundan tashqari, bemorlarga silga qarshi dorilari parenteral vena tomiriga yuborildi. 1- guruhda 11 nafar ($28,2 \pm 1,0$) va 2- guruhda 13 nafar ($22,3 \pm 1,2$) bemorlar izoniazid+rifampitsin antibakterial dorilarini qabul qildi. To'rtinchi preparat sifatida pirazinamid buyurildi. To'rtta antibakterial dorilarini, ya'ni izoniazid+ etambutol+ rifampitsin+

pirazinamid jamlanma dorisini 1-guruhda 49 nafar ($52,0 \pm 2,0$) va 2- guruhda 28 nafar ($34,1 \pm 1,2$) bemorlar qabul qildi.

Asosiy kasallikni kompleks davolashda tekshirilgan bemorlar kompleks davolajalarini qat'iy ortopedik yotoq rejimida oldi. 1-guruhda $32,0 \pm 1,2\%$, 2-guruhda $19,0 \pm 2,1\%$ holatda silga qarshi antibakterial dorilarini per os qabul qilinganda terida toshmalar paydo bo'lishi sababli, izoniazid $10\% - 5,0$ + Vit V6- $5\% - 2,0$ №30 vena ichiga va rifampitsin $450 \text{ mg} + \text{glyukoza } 5\% - 250,0$ №30 vena ichi tomchi yo'li bilan yuborildi.

O'tkazilgan kompleks davolash chora tadbirlariga qaramasdan 1- guruhda $24,0\%$, 2-guruhda $31,0\%$ holatda nevrologik asoratlari kuchayib borishi sababli, barvaqt asosiy kasallik ikkinchi haftasida jarrohlik muolajasi o'tkazishga ko'rsatma hisoblandi. Bemorlarni kuzatish va jarrohlik amaliyoti davrida oshqozon-ichak tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni oldini olish va jarrohlik amaliyoti natijasini yaxshilash uchun bemorlarni kuzatish, tashxislash, davolash sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Asoratlangan sil spondilitini OIT funktsional buzilishida jarrohlik amaliyotiga tayyorlash algoritmi

Asoratlangan sil spondilitida orqa miya faoliyati u yoki bu darajada buzilishi, bemorlarni davomli yotoq rejimida davolanishga majbur ekanliklari, ya'ni gipodinamik holati, silga qarshi dorilari doimiy qabul qilishlari, albatta OITda funktsional, hattoki organik buzilishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek OIT da shikoyati bor (1-guruh), ma'lum funktsional kasalligi mavjud bo'lgan bemorlar qatorida, OIT da shikoyati bo'lmagan bemorlar (2-guruh) xam chuqur kuzatuvda, tekshiruvga muhtojliklari aniqlandi. Sxema talabiga ko'ra bemorlar jarrohlik muolajasigacha bo'lgan davr (I-bosqich) va jarrohlik muolajasidan keyingi davr (II-bosqich) xam gastroenterolog kuzatuviga muhtojdirlar.

OIT da, ya'ni anamnezida o'zgarishlar mavjud bo'lgan bemorlar jarrohlik amaliyotidan avvalgi davrida qat'iy gastroenterolog ko'ruvida bo'lishdi va kasallikni rivojlanganligi, davriga, asoratiga qarab muolajalar o'tkazildi.

Dissertatsiyaning «**Oshqozon-ichak tizimida funktsional buzilishlar bo'lgan sil spondiliti bemorlarni jarrohlik usulida davolash**» deb nomlangan beshinchi bobida jarrohlik usulida davolashning samaradorligi ikkala guruhning 100 nafar bemorlarida o'rganildi. Sil bilan zararlangan umurtqa segmentida jarrohlik amaliyoti transplevral (1-guruhda 24 nafar va 2-guruhda 11 nafar bemorlarda), transdiafragmal (11 va 9 nafarida), qorin orti bo'ylab (15 va 20) nafar bemorlarda bajarildi. "Umurtqa deformatsiyasini xirurgik davolash uchun qurilma" va "Qisqich"ni qo'llash jarrohlik amaliyotini 60-70 minutga, qon ketishini 35% ga qisqartiradi.

Umumiy og'riqsizlantirish asosida bemor o'ng yoki chap taraflama yonbosh yotgan holatida, jarrohlik kesimi hisobga olinib, jarrohlik maydoni antiseptik ishlov berilgandan so'ng, teri kesimi bajarildi. Sil bilan zararlangan umurtqa segmenti ochildi va zararlangan o'choq to'liq olib tashlanib, ya'ni nekrektomiya bajarildi. Umurtqa segmentida yallig'lanish jarayoni tarqalgan 1-guruhda 32 nafar ($38,2 \pm 1,6$), 2-guruhda esa 14 ($19,7 \pm 1,4$) nafar bemorlarda nekrozga uchragan disk qoldiqlari, sekvestlar, kazeoz massalari va atrof fibroz to'qimalari kesib olib tashlandi. 1-guruh 10 ($15,2 \pm 1,0$) nafar bemorlari va 2-guruhning 4 ($5,8 \pm 0,7$) nafar bemorlarida jarrohlik amaliyoti bir necha bosqichda o'tkazildi. 1-guruhning 5 nafar ($9,2 \pm 2,1$) bemorlarida qo'shimcha ravishda ko'krak umurtqalarida qalinlashgan tUSDagi chandiqli jarayon va o'pkada faol sil hisobiga umurtqa tanasini yon taraflama qarama-qarshi tarafdagi umurtqa yon abstsess bartaraf qilinib, abstsessonekroektomiya bajarildi. 1-guruhning 2 nafar bemorlarida esa umurtqa tanalariga implantat o'rnatish yallig'lanish jarayonining juda ham tarqoqligi va muolaja shikastining xavfi yuqoriligi hisobiga ikkinchi bosqichda o'tkazildi.

Bemorlarda orqa miya funktsiyasi buzilishlari turli xil darajada bo'lib, 1-guruhda 44 nafar ($73,3 \pm 3,8$) va 2-guruhda esa 21 nafar ($52,5 \pm 3,0$) bemorlarni tashkil qildi.

Orqa miya kanali ochilganda jarrohlik amaliyoti davrida 24 nafar ($56,1 \pm 2,3$) bemorlarda orqa miya suyak sekvestrlari, yiring, kazeoz massalari bilan ezilgani, 19 nafar ($28,0 \pm 2,4$) bemorlarda esa qo'pol fibroz tolalari va orqa miya kanali ichidan yallig'langan disk bo'laklari ajratib olindi. 10 nafar ($16,5 \pm 1,7$)

bemorlarda umurtqa segmenti zararlangan sohada umurtqa pog'onasi nostabilligi hisobiga orqa miya turli darajada ezilishi va orqa miya atrofida fibroz o'zgarishlari paydo bo'lgani aniqlandi. 2 -guruhda bu holat 13 ($43,2\pm 2,4$), 11 ($28,3\pm 2,0$) va 8 nafar ($30,0\pm 1,2$) bemorlarda tashkil qildi. Orqa miya suyuqligi, ya'ni likvor oqimini qayta tiklash maqsadida orqa miya qattiq pardasi kesim bo'yicha ochilib, granulyatsiya va fibroz chandiqlardan tozalandi va natijada likvor oqimi to'liq qayta tiklandi.

